

RETSIPROKLIK XUSUSIDA MULOHAZALAR

Sharipov Bobur Salimovich

Samarqand davlat tibbiyot universiteti Tillar kafedrasasi assistenti

bs_sharipov89@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6809368>

Annotatsiya. Maqolada ish harakatning bajarilishi jarayonidagi o'zaro munosabatni ifodalovchi retsiproklik xususida so'z boradi va bu haqda tilshunoslarning bildirgan mulohazalari tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: retsiprok, model, o'zaro munosabat ma'nosi, nisbat kategoriyasi.

Tilshunoslikda retsiproklik xususida gapirilganda, uni birgalik nisbat bilan bog'lab o'rganilishi ta'kidlanadi. Nisbat kategoriyasi va retsiproklik haqida ushbu maqolamizda fikr yuritimiz.

G.P.Pavskiy nisbatning uchta umumiy semantik-grammatik turini ajratib ko'rsatadi: aniq, majhul va o'rta. U fe'llarning bunday bo'linishini barcha mavjudotlarning turli holatlari bilan bog'laydi. G.P.Pavskiyning fikriga ko'ra o'zlik shaklning asosiy vazifasi fe'llarni o'timsizga aylantirishdir. Shu bois o'zlik shaklni o'rta nisbat paradigmasiga kiritadi. Olim -ся qo'shimchasi bilan tugaydigan birgalik munosabatni anglatuvchi shaklga ham izoh berib o'tadi va barcha nisbatlarni sintaktik nuqtai nazardan o'rganadi[1.3].

Bizningcha G.P.Pavskiyning o'zlik shaklning asosiy vazifasi fe'llarni o'timsizga aylantirishdir, degan fikriga qo'shilib bo'lmaydi. Zotan, o'zlik nisbat faqat o'timli fel negizidan emas, balki kulmoq, semirmoq kabi o'timsiz fe'l negizlaridan ham hosil bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, uning asosiy semantik vazifalari qatoriga sof o'zlik, subyektning ruhiy holatidagi o'zgarishlar, subyektning o'rin, joy almashtirishi bilan bog'liq ma'no ifodalari ham kiradi[2.183].

F.I.Buslaev «Rus tilining tarixiy grammatikasidan tajriba» asarida nisbat muammosi bilan bog'liq juda boy faktik material to'playdi va bu xususda asosiy masalalarni hal qilishga katta hissa qo'shadi. F.I.Buslayevning fikricha, nisbat predmetning faoliyatini yoki faoliyatning boshqa predmetga o'tishini anglatadi: читаю книгу (kitob o'qiyarman), привыкаю к труду (ishga ko'nikyarman), стою (turibman) kabi. Olim читаю книгу (kitob o'qiyarman), привыкаю к труду (ishga ko'nikyarman) kabilarni o'timli, стою (turibman) fe'lini esa o'timsiz deb fe'llarni ikki guruhga ajratadi va ularni barcha nisbatlar doirasida bo'lib chiqadi[3.343-344].

Bizningcha, привыкаю к труду (ishga ko'nikyarman) birikmasidagi привыкать fel'i кому?, чему? so'roqlariga mos keladigan jo'nalish kelishigidagi (дательный падеж) so'zlarga birikib, o'timsiz holatda turadi. Shuning uchun bu kabi fe'llarni o'timli deb bo'lmaydi. F.I.Buslayevning mazkur fikri V.V.Vinogradov

tomonidan tanqidga uchraydi. Jumladan, olim shunday deydi: «Fe'llarning bunday bo'linishida xato va qarama-qarshiliklar mavjuddir. Ushbu holatda o'timli va o'timsiz fe'llar aralashib ketgan»[4.479].

F.I.Buslayevning mulohazasiga ajablangan A.A.Potebnya: «Mohiyatan o'timsiz bo'lgan fe'l qanday qilib bir paytning o'zida o'timli bo'lishi mumkin?» – degan edi[5.197].

F.I.Buslayevning fe'l va uning nisbatlari xususidagi ayrim mulohazalari olimlar tomonidan tanqidiy tarzda qarshi olingan bo'lsada, uning asari nisbatlarni diaxron va sinxron o'rganishda ahamiyatli manba bo'lib xizmat qiladi.

Keyinchalik qiyosiy jihatdan retsiprokning ilmiy tavsifi Xarkov universitetida A.V.Popov tadqiqotlarida o'z ifodasini topdi. 1881-yilda Voronejda uning magistrlik dissertatsiyasining «Сравнительный синтаксис именительного, звательного и винительного падежей в Санскрите, Зенде, Греческом, Латыни, Литовском, Латышском и Славянских наречиях» deb nomlanuvchi bir qismi «Филологические записи» jurnalda e'lon qilindi. Mazkur ishda retsiproklikning ilmiy talqiniga bag'ishlangan masalalar ilk bor yoritildi[5].

Undan so'ng, deyarli chorak asr o'tgach, retsiproklik haqidagi masalaga F.F.Fortunatovning shogirdi V.K.Porjezinskiy e'tibor qarata boshladi. U o'zining «Возвратная форма глаголов в литовском и латышском языках» nomli doktorlik dissertatsiyasida retsiproklikni qiyosiy tahlil qildi[7].

1962-yilda N.Y.Yanko-Triniskayaning «Возвратные глаголы в современном русском языке» nomli asari nashr etildi. N.A.Yanko-Trinitskaya -ся (-sh, -ish) morfemasining so'zga qo'shilishini agglyutinatsiya natijasini taqozo etishini inkor etib, fikrini mazkur qo'shimchanning fe'lga birikishidan o'timli fe'l o'timsizga o'zgaradi deb dalillamoqchi bo'ladi[8].

Bizningcha, agglyutinatsiya hodisasini fe'lga birikayotgan qo'shimchalarning o'timli fe'lni o'timsizga aylantirishiga qarab inkor etib bo'lmaydi. Agglyutinatsiya hodisasi rus tilida ham mavjud bo'lib, unda agglyutinativ formalar o'zining standart affikslariga ega ekanligi bilan xarakterlanadi[9/elektron manba]. Shu jihatdan, -ся formasi bir talay so'zlarga qo'shib, standartlik kasb etadi. Masalan: обнимать – обниматься – обнимаются: обним – o'zak, -а – suffiks, -ют – ko'plik shakli, -ся – standart postfiks[10/elektron manba].

1966-yilda Collins COBUILD (Collins Birmingham University International Language Database – Birmingham universitetining xalqaro lingvistik ma'lumotlar bazasi) universitetida «Patternlar grammatikasi» nashr etildi (pattern inglizcha so'z bo'lib, model, namuna degan ma'noni anglatadi). Mazkur grammatikaning alohida bobi retsiprokli fe'llarni tahlil qilishga bag'ishlandi[11]. Unda retsiprokli

fe'llar batafsil tadqiq etilib, har bir modelning o'ziga xos semantikasi yoritildi. Bundan tashqari, retsiprokli model faqat fe'l yordamida emas, balki birgalik olmoshlari bilan ham voqelanishi mumkinligi va u nutqda konkretlik kasb etishi ta'kidlandi. Darhaqiqat, retsiproklikni faqat fe'l doirasida o'rganish maqsadga muvofiq emas. Birmingem universiteti olimlari to'g'ri ta'kidlashganidek, bizningcha ham, retsiproklik keng qamrovli bo'lib, qanday ko'rsatkich bilan ifodalangan bo'lmasin birgalikda bajarilgan o'zaro munosabatni anglatadi.

Bu haqda mulohaza yuritgan L.Antonyuk va A.Mixnevich shunday deyishadi: «Lingvistikada retsiproklikning maxsus ko'rsatkichlari bo'lmagani uchun ham biz o'zaro munosabat ifodasini faqat fe'l nisbati doirasidagina o'rgandik»[12.186-193]. Olimlarning retsiproklikni faqat fe'l nisbati doirasida o'rgandik deyishlari o'rinli, albatta, ammo retsiproklikning maxsus ko'rsatkichlari yo'q deb bo'lmaydi. Zero, birgalikda bajarilgan o'zaro munosabatni voqelantiruvchi elementlar retsiproklikning ko'rsatkichlari hisoblanadi. Bunga misol qilib birgalikda, hamma, bir-biri, bilan, birga, bari, -sh, -ish, -ovlon kabilarni kiritishimiz mumkin. L.Antonyuk va A.Mixnevich bunga e'tibor bermagan ko'rinishadi.

Akademik V.V.Vinogradov nisbat kategoriyasi xususida batafsil ma'lumot berdi. U -ся (-sh, -ish) affiksi bilan qo'llanadigan hamda qo'llanmaydigan fe'llarni tasnif qildi. Olim fe'llar haqida fikr yuritganida, ish-harakatning bajarilishidagi o'zaro munosabatni ifodalovchi fe'llar semantikasiga alohida e'tibor qaratdi. O'zaro munosabat ma'nosini fe'ldan tashqari с predlogi bilan hosil bo'ladigan qurilmalar ham ifodalashi mumkinligini e'tirof etdi[13]. Demak, retsiproklik deganda faqat fe'lning birgalik nisbati nazarda tutilmaydi.

Adabiyotlar:

1. Павский Г.П. Филологические наблюдения над составом русского языка. Рассуждение 3. О глаголе. -СПб., 1842.
2. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. - Тошкент: Ўқитувчи, 1975.
3. Буслаев Ф.И. Опыт исторической грамматики русского языка. Часть II. - М.: в Унивeрситетской типографии, 1858.
4. Виноградов В.В. Русский язык (грамматическое учение о слове). -М.: Высшая школа, 1972.
5. Потебня А.А. Из записок по русской грамматике. -М.; Л.: Просвещение, 1941. Т.4.
6. Попов А.В. Сравнительный синтаксис именительного, звательного и винительного падежей в санскрите, зендском, греческом, латинском, немецком, литовском, латышском и славянских

наречиях//Филологические записки. Вып.4-5. -Воронеж: Издательство А.Хованского, 1881.

7. Поржезинский В.К. Возвратная форма глаголов в литовском и латышском языках. -М.: Университетская типография, 1903.

8. Янко-Триницкая Н.А. Возвратные глаголы в современном русском языке. -М.: Наука, 1962.

9. Агглютинация и аналитизм в русской морфологии//<https://scicenter.online> (Sahifaga 29.05.2022 da murojaat etildi).

10. Sostavslova.ru (Sahifaga 29.05.2022 da murojaat etildi).

11. Collins COBUILD Grammar Patterns 1: Verbs. London: Harper Collins Publishers, 1996.

12. Антонюк Л.А., Михневич А.Е. Залоговое значение взаимности и проблема «скрытой» грамматики. -Л.: Наука, 1978. -С. 186-193.

13. Виноградов В.В. Русский язык (Грамматическое учение о слове):-М.: Высшая школа, 1986.